



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ARAB TILIDA SO'Z BIRIKMALARI VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI

Xasanov I.X.

Oriental university katta o'qituvchisi

“Arab tilida so'z birikmalari semantikasi” mavzusi ma'lum darajada murakkab mavzulardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, arab tilida ma'noga juda kata e'tibor beriladi. So'zlarning bir necha ma'nolarda ishlatilishi ham boshqa tillarga nisbatan aynan arab tilida yetakchilik qiladi. Ma'no bilan bog'liq bo'lgan balog'at va fasohat ilmlarining vujudga kelganligi ham so'zimizning tasdig'idir

Arab tilidagi so'z birikmasi “المُرْكَب” deb atalib, ular oltita turga bo'linadi:

1. Isnodi
2. Izofiy
3. Bayoniy
4. Atfiy
5. Mazjiy
6. Adadiy

المركب الإسنادي “jumla” ham deyilib, u o'zbek tilidagi gapga to'g'ri keladi. Bu bizning mavzuumiz so'z birikmalari semantikasi haqida bo'lgani sababli bu haqida so'z yuritilmaydi.

Izofiy so'z birikmasi bu moslashmagan aniqlovchili so'z birikmasidir.

Bayoniy so'z birikmasi esa uch turga bo'linadi: vasfiy (moslashgan aniqlovchili), tavkidiy, badaliy (izohlovchili).

Quyida biz moslashgan aniqlovchili so'z birikmasi, moslashmagan aniqlovchili (izofiy) so'z birikmasi, izohlovchi (badal va tavid)li so'z birikmalarini o'rganamiz.

Moslashgan aniqlovchi, odatda, predmetning belgisini bildiruvchi sifatlovchi aniqlovchidir.

Arab tilida moslashgan aniqlovchi tobe'lardan hisoblanib, صفة “sifat” yoki نعت “na't” deb ataladi. Aniqlanmish esa موصوف “mavsof” yoki منوعات “man'ut” deyiladi. Moslashgan aniqlovchi ko'pincha asliy yoki nisbiy sifatlardan, tartib sonlardan, aniq va majhul nisbat sifatdashlaridan, ko'rsatish olmoshlaridan va boshqalardan ifodalanadi. Ammo aniqlovchining ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalangan ko'rinishi asl arab nahvida moslashgan aniqlovchiga mas, balki badal (izohlovchi)ga kiradi. Bu haqida izohlovchi haqida so'z yuritilayotganida batafsilroq to'xtalamiz.

Arab tilida sifat (moslashgan aniqlovchi) ikki xil bo'ladi:

1. Haqiqiy sifat
2. Sababiy sifat

Haqiqiy sifat va sababiy sifat o'rtasidagi farq aynan ularning semantik jihatida ya'ni ma'nosida, nimani ifodalayotgani bilan bog'liq. Shunga ko'ra aniqlovchi turlarga ajratiladi.





Haqiqiy sifat aniqlanmishning belgisini bildirib keladi. Masalan:

Chiroyli gullar الأزهار الجميلة

Yangi talaba طالب جديد

Shirin taom الطعام اللذيذ

Sababiy sifat esa aniqlanmishga tegishli bo'lgan shaxs yoki predmetning belgisini ifodalaydi. Masalan:

Kitoblari ko'p talaba الطالب الكثير كُتُبُهُ

Otasi boy bola الغلام الغنيُّ أبُوهُ

Haqiqiy sifat (aniqlovchi) aniqlanmish bilan to'rtta kategoriyada moslashadi:

1. Kelishik kategoriyasi
2. Aniq-noaniqlik (holat) kategoriyasi
3. Son kategoriyasi
4. Jins kategoriyasi

Jumladan, طالب جديد “yangi talaba” so'z birikmasida aniqlanmish bosh kelishikda, birlikda, noaniq holatda, muzakkar jinsda turibdi. Shuning uchun ham uning aniqlovchisi bo'lgan جديد so'zi ham u bilan moslashgan tarzda bosh kelishikda, birlik sonda, noaniq holatda hamda muzakkar jinsda kelyapti.

Moslashgan aniqlovchi aniqlanmishga doim shu to'rt narsada ergashib kelgani uchun ham u arab tili grammatikasida tobe'lardan hisoblanadi.

Arab tilida moslashgan aniqlovchili so'z birikmasining qanday ifodalanishi ko'rib chiqdik. Endi esa aniqlovchining boshqa bir turi bo'lmish moslashmagan aniqlovchi – izofa bilan tanishamiz.

“Izofa deb ikki ismning bir-biriga qo'shilishiga aytiladi.”⁸³ Izofa o'zbek tilidagi moslashuv yo'li orqali birikkan moslashmagan aniqlovchi ya'ni qaratqich aniqlovchili so'z birikmasiga to'g'ri keladi. Izofaning aniqlanmish qismi muzof, qaratqich aniqlovchili qismi esa muzof ilayhi deb ataladi. Masalan:

Talabanning kitobi كِتَابُ طَالِبٍ

Mahmudning do'sti صَدِيقُ مَحْمُودٍ

Muzof – qo'shilgan, izofa qilingan ma'nolarini bildirib, u muzof ilayhiga qo'shilgan, unga qarashli bo'lgani uchun ham shunday nomlangan. Izofa qilinayotgan ism tanvinli bo'lsa, yuqorida kelgan misollardagi kabi uning tanvini tushirib qoldiriladi. Agar u ikkilik yoki to'g'ri ko'plikda bo'lsa, ularning nuni tushiriladi. Masalan:

تَبَّتْ يَدَا أَبِي لَهَبٍ.

“Abu Lahabning ikki qo'li qurisin” (“Masad” 1.)⁸⁴

Muzof ilayhi – “unga qo'shilgan” ma'nosini ifodalaydi. Muzof ilayhi muzof unga qo'shilgan ism bo'lib, qaralmish ma'nosida keladi, ya'ni muzof semantik jihatdan muzof ilayhiga tobe' bo'ladi.

⁸³ Hifniy Nosif, Muhammad Diyab, Mustafu Tammum, Muhammad Solih. Ad-durus un-nahviyya. Hikmatov A. tarjimasini.-T.: Toshkent islom universiteti, 2009. – B. 65

⁸⁴ Mansur A. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasini va tafsiri.-T.: Toshkent islom insituti, 2001.-B. 128



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“Muzof ilayhi ism bo’lib, o’zidan oldin kelgan ismga tegishli bo’ladi. Shunda avvalgi ism keying ism bilan aniqlashadi yoki xoslashadi. Masalan:

Oyning nuri نُورُ الْقَمَرِ
Chiroqning nuri ”⁸⁵ نُورُ الشَّمْسِ

“...Lafziy yoki taqdiriy suratdagi harfi jarning vositasi ila muzofning unga nisbati beriladi.”⁸⁶ Ya’ni muzof va muzof ilayhi o’rtasida o’zaro bog’liq munosabat bo’lib, bu munosabat tobe’lik asosiga quriladi. Muzof muzof ilayhiga tegishlik, unga qarashlilikni ifodalaydi yoki uning bir qismi bo’ladi shuning uchun ham muzofning nisbati muzof ilayhiga beriladi. Ular o’rtasidagi o’zaro munosabat esa harfi jar – predloglar yordamida amalga oshirilib, bu predloglar lafziy- birikmada aytilgan, ishlatilgan yoki taqdiriy – birikma ichida kelmasa-da, taqdiran mavjud deb hisoblanadigan bo’lishi mumkin.

Arab tilida ma`noni kuchayturuvchi izohlovchilar ham mavjud bo`lib, ular

كَلَّا، عَيْنٌ، نَفْسٌ، كَلَّتَا، دَاتٌ، عَيْنٌ، نَفْسٌ، كَلَّتَا، كَلَّا so`zlar vositasida yasaladi. Bundan tashqari arab tilida so`zning o`rnida ishlatiluvchi izohlovchilar ham mavjud bo`lib ular الْبَدَلُ deyiladi. Bunday izohlovchi izohlanishdagi ma`noni to`laligicha yoki qisman o`z iciga oladi. Bu izohlovchilar izohlanmishdan keyin keladi va unga mos bo`lgan olmoshni o`ziga qabul qiladi, hamda izohlanmish bilan bir xil kelishikda keladi. Masalan:

يُعْجِبُنِي مَحْمُودٌ عِلْمُهُ

Menga Mahmudning bilimi yoqadi (Menga Mahmud, uning bilimi yoqadi).

أَكَلْتُ الرِّغِيْفَ نِسْفَهُ

Nonning yarmini yedim (Nonni, uning yarmini yedim)

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, arab tilida so’z birikmalari o’zbek tiliga qaragada boshqacha ifodalanadi. moslashgan aniqlovchi, moslashmagan aniqlovchi hamda izohlovchi ishirokidagi so’z birikmalari o’ziga xos xususiyatlarga ega . ularning bu xususiyatlari hamda turlarga ajratilishi esa aynan ularning ma’noviy jihati, semantikasi bilan bog’liq ekan. Biz yuqorida ko’rib chiqqan so’z birikmalari semantikasida ko’zga tashlanadiki, ushbu so’z birikmalari tarkibiga kiruvchi bo’laklar o’zaro ma’no jihatidan bir-biriga bog’langan bo’lib, ular o’rtasida tobe’lik munosabati mavjud, ya’ni bu so’z birikmalarining barchasida hokim so’z va tobe’ so’z mavjud bo’lib, tobe’ so’z hokim so’zni yo izohlaydi, yo aniqlaydi, yoki unga tegishli bo’ladi.

⁸⁵ Hamraliyev Sh. Arab tili darsligi.-T.: Movarounnahr, 2012. –B. 78

⁸⁶ O’sha kitob, o’sha bet





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdujabborov A. Arab tili.-T.: Toshkent islom universiteti, 2007
2. Begmatova B.M. Arab tili.-T.: TDSHI, 2013
3. Hamraliyev Sh. Arab tili darsligi.-T.: Movarounnahr, 2012
4. Hamroyev M.A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi.-T: O'qituvchi, 2008
5. Hifniy Nosif, Muhammad Diyab, Mustafo Tammum, Muhammad Solih. Ad-durus un-nahviyya. Hikmatov A. tarjimasi.-T.: Toshkent islom universiteti, 2009
6. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.-T.: G'afur G'ulom. II jild, 2009
7. Mansur A. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri.-T.: Toshkent islom insituti, 2001

